



ZAMONAVIY VA MILLIY SAN'AT INTEGRATSIYASI ASOSIDA KASB O'RGAATISH USULLARI

R.X.Jiyanqulova,

N.Toshpo'latova

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

МЕТОДЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ СОВРЕМЕННОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Annotatsiya:

Maqolada zamonaviy hunarlar va milliy san'at integratsiyasi, milliy va zamonaviy materiallarni qo'llash orqali buyumlarni tayyorlash texnologoyasi haqida, zamonaviy kasb o'rnatish usullari haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lif-tarbiya, kasb-hunar, qadriyatlar, tadbirkorlik, texnologiya ta'limi, amaliy san'at, naqsh, bezak materiallar, ishlov berish texnologiyasi.

Аннотация: В статье представлена информация об интеграции современных ремесел и национального искусства, технологии изготовления изделий из национальных и современных материалов, современных методах профессионального обучения.

Ключевые слова: образование, профессия, ценности, прикладное искусство, предпринимательство, технологическое образование, узоры, отделочные материалы, технология обработки.

Annotation: The article provides information on the integration of modern crafts and national art, the technology of manufacturing products from national and modern materials, modern methods of vocational training.

Key words: education, profession, personnel, entrepreneurship, educational technologies, applied arts, pattern, decorative materials, processing technology.



Mamlakatinizda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, ularda mehnatsevarlik, yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlargacha o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'snaviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish haqida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z ma'rzasida aniq vazifalar belgilab berdi [1].

2023 yil 20 yanvar kuni prezident Shavkat Mirziyoev raisligida maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. Unda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari muhokama qilindi [2].

Qadimdan uy-ro'zg'or buyumlariga naqqoshlik san'ati bilan ishlov berib kelingan bo'lib, uy-ro'zg'or buyumlariga kundalik foydalanish uchun ishlov berish yoki yuqori did bilan ishlov berib san'at asarini yaratish, sovg'alar tayyorlash mumkin. Texnologiya ta'limi yo'nalishi talabalarining bo'sh vaqtini kasb hunarga o'rgatish maqsadida turli to'garaklarda amaliy san'at turlarini, kasblarni o'rgatish yo'lga qo'yilib, bundan ko'zlangan maqsad esa yosh avlodga milliy qadriyatlarimiz hisoblangan xalq hunarmanchilik sohalaridan: sopolga bezak berish, zargarlik, teriga ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi kabi hunarlar sirlari o'rgatish orqali amalga oshirish mumkin. Bu to'garaklar uchun ko'p mablag' va dastgohlar talab etilmaydi. Har bir umumiyoq o'rta ta'lim maktablarida tashkil etish mumkin. Buning uchun texnologiya ta'limi o'qituvchilariga ushbu san'at va hunarlarni bir nechtasini texnologiyasini o'rganish talab etiladi.

San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at - insonning moddiy va ma'snaviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir [3].



San'at va mehnat. Ma'lumki, mehnat insonning maqsadga muvofiq tarzda aql yoki kuch vositasida amalga oshiriladigan faoliyati.

Har bir mehnatning mahsuli qachonki u insonning eng yuksak qobiliyati, didi, texnika va texnologiyalarni qo'llash malakasi bilan mujassamlasha olsa san'at bo'lishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy materiallar, vositalarni ko'patyishi yangi hunarlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Quyida biz tavsiya etayotgan texnologiyada zamonaviy vositalar bilan milliylikni integratsiyalab mehnat mahsuli yaratilgan.

Naqsh – arabcha tasvir gul degan ma'noni anglatadi. Quyosh, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. **Anor**- baxt-iqbol ramzini bildiradi. Milliy qadriyatlarimiz sanaladi. Anor naqshi serfarzandlik ma'nolarini ham bildiradi va milliy hunarmandchilikda kashta, gilam, kulolchilik,naqqoshlikda keng qo'llaniladi[4].

Bugungi kunda bezak materialarning assortomentlarini ko'payishi natijasida turli sovg'abop mahsulotlar tayyorlashning yangi usullarni qo'llash orqali mumkinligini ko'rsatmoqda.

Biq quyida tavsiya etayotgan mahsulotni texnologiyasi bilan tanishtirib o'tamiz.

Bunda asosan milliy naqsh ishlangan bo'lib, anor, novda va barg elementlari qo'llanilgan. Bu yerda novda va barg to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Asosiy kompozitsiya anor naqshi hisoblanadi.

Sopol idishga milliy naqsh ishlash texnologiyasi:

Kerakli materiallar: Sopol lagan, gips, bisser-toshlar, moy boyoqlar, dispers bo'yoqlar, kist, folga qog'oz, yelim turlari va boshqa materiallar.

Ishning tartibi:

1. Sopol yuzasini emulsiya bilan oq rangga bo'yab olamiz.
2. Naqshni idish yuzasiga ko'chirib olinadi- qalam yordamida;
3. Bisser va toshlar bilan bezatish bosqichma-bosqich yopishtiriladi;
4. Gipsni sopol chetiga mato yordamida yopishtirish bajariladi;
5. Pardozlash - buyumni turiga qarab tanlanadi;
6. Sopol cheti emulsiya bilan ranglab olinadi;
7. Yuzaga lak surib, lak qotmasdan yaltiroq dispers boyoq, yoki zar sepiladi.

Bu texnologiya milliy hunarmandchilik turlaridan mujassamlashgan holda yaratiladi. Kulolchilik, naqqoshlik, ganchkorlik hamda bezak toshlar bilan ishslash

kabi hunarlar jamlamasidan iborat.

Sopol buyumga ishlangan naqsh quyida texnologik xaritada keltirilgan.



Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, suvenirlar tayyorlashning ko'p turlari mavjud



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences
Hosted online from Toronto, Canada.
Date: 5th March, 2023
ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

bo'lib ularni tayyorlash texnologiyasi har xil. Suvenirlarni tayyorlash orqali talabalarda amaliy san'atga qiziqish, ijodiy kayfiyat, mehnat qilishga motivatsiya uyg'otish, mehnat ko'nikmalarini shakllantiriish va milliy qadriyatlarinizni e'zozlash va qadrlash kabi xislatlarni shakllantiradi. Kelgusida ushbu kasb orqali tadbirdorlik bilan shug'ullanishi va jahonning turli mamlakaetlarida o'tkaziladigan ko'rgazmalarda , tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 2022.20.12.
2. Sh. Mirziyoev. "Maktablarda 64 xil kasb o'rgatiladi, xorijlik o'qituvchilar jalg qilinadi". Toshkent. 20.01.2023.
3. Vikipediya. San'at.
4. Sh.Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2021.276 b.
5. R.X.Jiyanqulova. Servis xizmati: tikuvchilik materialshunosligi. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2022.-138b.